

Tuproqqal'a tuman Maktabgacha ta'limi bo'limi keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi **SH.Ruziboev** bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **"XORAZM INVESTMENT SAVDO" MCHJ** nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi **A.Xudayberganov** ikkinchi tomondan «joriy ta'mirlash ishlarini bajarish» bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

- **ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofikligi tugrisidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt kurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va urnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda kullaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiklovchi boshka xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiklanganligi tugrisidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oralik davrda kabul kilinishi tugrisidagi dalolatnomalar, montaj kilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi tugrisidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda kurilish normalari va koidalarida nazarda tutilgan boshka xujjatlar;
- **qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob'ektning kurilish maydoni chegarasi ajratib kuyiladi yoki bosh rejaga muvofik belgilanadigan boshka belgilar bilan belgilab kuyiladi;
- **vaktinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan kurilish maydonida urnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bulgan xar kanday tipdagi vaktinchalik binolar va inshootlar;
- **berkitiladigan ishlar** – sifati va anikligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniklash mumkin bulmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
- **shartnoma narxini bulib chikish** – ishlarning xar bir boskichi va yoki turlari kiymatini anik belgilagan xolda shartnoma buyicha ob'ektning umumiy kiymatini boskichlarga taksimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofik **8-son DMTT** ko'zda tutilgan loyixa xujjatlari buyicha **joriy ta'mirlash ishlarini bajarish** majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BUYICHA ISHLAR KIYMATI.

3. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar kiymati barcha soliklar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshka xarajatlarini uz ichiga olgan xolda joriy narxlarda KKS bilan **56 800 000 (Ellik olti million sakkiz yuz ming)** sumni tashkil etadi.
4. Ishlar kiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik kayta kurib chikilishi mumkin emas, kuyidagi xollar bundan mustasno:
- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
 - ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
 - ob'ektning qurilishi bir yildan ortik muddatga o'zgartirilganda.
5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bulganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qushimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bulimida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:
- barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarishda nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda uzining kuchlari yoki jalb kilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofik topshirish;
 - kurilish maydoniga zarur kurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, kurilish texnikasini etkazib berish, ularni kabul kilish, tushirish, omborga joylash va saklashni ta'minlaydi;
 - kurilish maydoni xududida vaktinchalik inshootlar kurish;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili tugrisida xabardor qilish;
 - kurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaktida atrof muxitni, utkazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muxofaza qilish buyicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroklari urnatish;
 - kurilish tavakkalchiliklarini sugurta qilish;
 - mazkur shartnoma buyicha ob'ektni foydalanishga kabul kilib olish tugrisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda kurilish maydonini uziga tegishli kurilish mashinalari va asbob – uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, kurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaktinchalik binolardan bushatish;
 - kurilish maydoni kuriklanishini ta'minlash;
 - kurilishda tavakkalchilik sugurtasi uchun belgilangan summaga sugurta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sugurtasi tugrisida shartnoma tuzadi va sugurta shartnomasi bilan sugurta polisini byurtmachiga takdim kiladi.
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni tulik xajmda bajarish majburiyatini uz zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan uzining 20% ga teng bulgan va unga xizmat kursatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablaglarini mazkur shartnomada kuzda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.
9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) tulik xajmda takdim kiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishlarning uz kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida tulik mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarish uchun yarakli bulgan kurilish maydonini ob'ekt kurilishi va kurilish tugallangungacha bulgan davrga dalolatnoma buyicha Pudratchiga berish;
 - ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-kurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan kabul kilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni kabul kilib olishni ta'minlash;
 - Pudratchining barcha murojaatlarini un kun muddatda kurib chikish va karor kabul qilish;
 - Pudratchiga ishlarni kabul qilish uchun zarur bulgan ijro xujjatlari ruyxatini takdim etish;
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni tulik xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada kuzda tutilgan uz majburiyatlarini bajarmasa yoki etarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida tulik mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab konuniy kuchga kiradi.
14. Pudratchi mazkur shartnomada kuzda tutilgan loyixa xujjatlari buyicha joriy tamirlash ishlarini bajaradi.
15. Tamirlash ishlari bajarish muddati 20 kalendar kunni tashkil etadi.

VII. TULOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. SHartnoma buyicha uzaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «sumda» kilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma buyicha ishlar umumiy joriy kiymatining 30% miqdorida avans utkazadi, bu 17 040 000 sumni tashkil etadi.
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maqsadli berilgan mablag'lar uch banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi.
19. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin haqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan holda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.
20. Pudratchining hisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt kurilishiga zarur bulgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga haq tulash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga tulash uchun va Ushbu ob'ekt kurilishining boshka xarajatlariga kat'iy sarflanadi.
21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun kurilish montaj ishlari mikdori, xarajatlari tugrisidagi «Bajarilgan ishlar kiymati tugrisidagi

ma'lumotnoma xisob-varak-fakturani» uzi tuzib takdim kiladi. Buyurtmachi bajarilgan kurilish-montaj ishlarining mikdori, sifati va xarajatlarini tekshirib kabul kilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan kurilish-montaj ishlarini mikdori, sifati va xarajatlari tekshiruvdan sung Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan kabul kilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati tugrisidagi ma'lumotnoma-xisob-varak-faktura» asos buladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga kadar mazkur shartnoma buyicha ob'ektga mulk xukukini uzida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga kadar ob'ektning tasodifiy yuk kilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida buladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi kurilish maydonida uz vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini tekshiradi.

25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarining barcha turlari bilan tusiksiz tanishish xukukiga egadir.

26. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan utkaziladigan kurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chogida paydo buluvchi masalalarni xal kilish buyicha yigilishlarda muntazam ravishda katnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida kursatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan uz rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustakil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir kilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiiikishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning kurilish sifati ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarining sifatsiz bajarilganligini aniklasa, u xolda Pudratchi uz kuchlari bilan va kurilish qiymatini kupaytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatin ta'minlash uchun kelishilgan muddatda kayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga tulaydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bulishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar kursatilishi sanasi, ishlarni kabul kilib olinishi, utkazilgan sinovlar, materiallar uz vaktida etkazib berilmasligi bilan boglik tuxtab kolishlar, kurilish texnikasining ishdan chikishi tugrisidagi ma'lumotlar, shuningdek kurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bulgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarining borishi va sifatan yoki Pudratchining kaydlaridan konikmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida uz fikrini bayon kiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda kursatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini kurish majburiyatini uz zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) HOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma buyicha majburiyatlar kisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka engib bulmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki tulik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma buyicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bulmaydigan kuch xolatlari amal kilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaktga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlari bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya kilish uchun qanday choralar kurilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab kilishga xaklidir.

XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:

- barcha ishlarni tulik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyixa xujjatlariga xamda kurilish me'yorlari, koidalari va texnik shartlariga muvofik barcha ishlarni bajarish sifatin;
- uzi tomonidan kurilish uchun kulaniladigan kurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatin, ularning loyixa xujjatlarida kursatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofikligini;

- ishlarni kabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniklangan kamchiliklar va nuksonlarni uz vaktida bartaraf qilishni;
- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish koidalariga muvofikligini kafolatlaydi.

Mavjud nuksonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida kayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuksonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada kursatilgan muddat iichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% mikdorida jarima solish xuquqiga ega.

XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga boglik bulmagan sabablarga kura Pudratchi tomonidan bir oydan kup vaktga kechiktirilganda;
 - ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga kupaygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
 - Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari kurilish me'yorlari va koidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- konun xujjatlariga muvofik boshka asoslar buyicha shartnomaning bekor kilinishini talab kilish xukukiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga tuxtatib qo'yilganda;
 - Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;
- konun xujjatlariga muvofik boshka asoslar buyicha shartnomaning bekor kilinishini talab kilish xukukiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining kushma karoriga kura tugallanmagan kurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar kiymatini Pudratchiga tulaydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga karor kilgan tomon mazkur bulim koidasiga muvofik ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan takdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani tulaydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi hollarda javobgar buladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma buyicha buning okibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish kuzda tutilgan ishlarning bajarilmagan kismining 5% miqdorida jarima tulaydi;

- buyurtmachining xisob rakamiga maksadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablaglarini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob rakamiga utkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% mikdorida jarima tulaydi;

- shartnomaga muofik ishlarni bajarish jadvali buyicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiklashdan bosh tortgani uchun ushbu kabul kilish, tasdiklashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlariga muofik tayyor xolda kabul kilish uchun takdim kilingan ob'ektni asossiz ravishda kabul kilishdan bosh tortsa shartnoma kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi;

43. Mazkur shartnomada kuzda tutilgan va tegishli ilovalarda kursatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida kuyidagi xollarda mulkiy javobgar buladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa , majburiyatlarining bajarilmagan kismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% mikdorda penya tulaydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan mikdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga kadar tasdiklatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi;

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan mikdordan kam bajarsa, bajarilmagan kismining 5% mikdorida jarima tulaydi;

- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi;

- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniklangan kamchiliklar, nuksonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (un kundan ortik bulmagan) muddatda bartaraf kilmasa ushbu aniklangan kamchiliklar, nuksonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima tulyadi.
44. Agarda tomonlardan biri uz rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon rakamlarini, korxona atamasi yoki makomini notugri bersa va uzgarganligi tugrisidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima tulyadi.
45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor kilishga tugri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni koplaydi, amaldagi konunlarda belgilangan tartibda.
46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib tulyadigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.
47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida tulov talabnomasi buyicha akseptsiz amalga oshirishga xaklidir.

XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. SHartnomani bajarishda va bekor kilishda yoki uzgartirishda shuningdek etkazilgan zararlarni koplashda paydo buladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular konun xujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat kilishlari mumkin.

XV. TOMONLARNING KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI.

49. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.
50. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.
51. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

XVI. ALOXIDA SHARTLAR

52. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bulgan tomonlar urtasidagi barcha oldingi yozma va ogzaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning uzaro kelishuvlari uz kuchini yukotadi.
53. Pudratchi kurilish ob'ektiga yoki uning aloxida kismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinni tomonga sotish yoki berish xukukiga ega bulmaydi.
54. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha uzgartirish va kushimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bulsa, xakikiy xisoblanadi.
55. Buyurtmachi bilan Pudratchi urtasidagi mazkur shartnomadan kelib chikmaydigan yangi majburiyatlar paydo bulishiga olib keladigan xar kanda axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga kushimchalar yoki uzgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiklashi kerak.
55. Agar Pudratchi shartnoma buyicha ishlar yakunlangandan keyin kurilish maydonida uziga tegishli mol-mulkni koldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi kurilish maydonini ozod kilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak tulashni kechiktirishga xaklidir.
56. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-konun xujjatlariga K.K.S. tugrisida uzgartirishlar kiritilsa kayta kurib chikiladi.
57. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshka barcha xollar uchun amaldagi konun xujjatlari kullaniyadi.
58. Mazkur shartnoma Byudjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab konuniy kuchga kiradi.
58. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bulgan 2 nusxada tuzildi.
59. SHartnomani amal kilish muddati «31» Dekabr 2022 yilgacha.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

PUDRATCHI:

BUYURTMACHI:

"XORAZM INVESTMENT SAVDO" MCHJ	Tuprokkala tumani Maktabgacha talim bulimi
Manzili: Hazorasp tumani Sanoat qishloqi	Manzili: Tuprokkala tumani SHarlauk maxallasi
Tel/faks: 88-201-44-44	Tel/faks:
h/r: 20208000905175791001	sh/hr: 100022860332217091100251017
INN: 307 112 076	INN: 307302464
OKONX: 61110	MFO : 00014 INN: 201122919
Bank: ATB Agrobank Hazorasp filiali	Moliya Vazirligi G'aznachiligi
MFO: 00558	G'azna x/v : 23402000300100001010
	Bank : Markaziy bank Toshkent sh XKKM



M.O' A.Xudayberganov

M.O' SH.Ruziboev



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

- 1.Loyihaning turi: Shartnoma.
- 2.Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi.

“Xorazm Investment Savdo” MCHJ «Pudratchi» nomidan rahbari A.Xudayberganov bir tomondan va Tuproqqal'a tuman MTB «Buyurtmachi» nomidan rahbari Sh.Ruzibayev ikkinchi tomondan 56 800 000 (Ellik olti million sakkiz yuz ming) so'mlik pudrat shartnomasini tuzish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Tuproqqal'a tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022 yil 11 avgust kuni ishlab chiqilgan va 2022 yil 11 avgust dasturga kiritilgan va Tuproqqal'a tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga yuborilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Tuproqqal'a tumani
yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti



M.Sadikova

2022 yil “11 “ avgust

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 128302 на приобретение Тупроккала тумани МТБга карашли 8-сон МТТ биносини жорий таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 03.08.2022

Время рассмотрения 03.08.2022 11:56

Конкурсная комиссия Хоразм вилояти Тупроккала тумани Мактабгача талим булими, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	RUZIBAYEV SHUXRAT XUDAYBERGANOVICH	рахбар	гурух рахбари
Секретарь комиссии	ASHIROV ULUG'BEK ISMAILOVICH	мутахассис	гурух котиби
Член комиссии	YAROSHEVA ZUMRAT SHARIPOVNA	озик овкат хисобчиси	гурух аъзоси
Член комиссии	DJANGIROV RASHID KADIROVICH	иктисодчи	гурух аъзоси
Член комиссии	RAXMANOV OXUNJON NE'MATJON O'G'LI	ТМЗ хисбчиси	гурух аъзоси
Член комиссии	G'OFUROV SHOXRUX G'AYRATOVICH	шартнома хисобчиси	гурух аъзоси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 03.08.2022 года № лота 128302.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 100.00 / Весовой коэф. ценовой части: .00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту зданий
Подробное описание	Шартнома шартлари асосида
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	58 640 771.00
Стартовая сумма	58 640 771.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Корхонани охирги 3 йиллик баланс ва молиявий натижалари хисоботлари 2019, 2020, 2021, йиллар (Давлат солиқ инспекциясидан тасдиқланган бўлиш керак)

Тип: Текстовое значение

Описание: Корхонани охирги 3 йиллик баланс ва молиявий натижалари хисоботлари 2019, 2020, 2021, йиллар (Давлат солиқ инспекциясидан тасдиқланган бўлиш керак)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	40	маълумот юкланди.	40	Экспертная		
XORAZM FAYZ QURILISH XK	40	файл	22	Экспертная		

Критерий №2 Доимий равишда ишловчи 20 тадан кам булмаган малакавий ишчилар мавжудлиги инженер-техник ходимларни мавжудлиги олий маълумотли курилиш мутахассислигига эга бўлиши мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги ва техника ва ёнгин хавфсизлиги ва сифат назорати ва муҳандис курувчилар ва иш юртурувчилар сони ходимлари 1 киши мавжудлиги my.mexnat.uz сайтидан юкланган QR кодли меҳнат дафтарчасидан ва диплом нусхасини тақдим этиши шарт ва курилиш ишларини 10 иш кунда якунлаши тугрисида қафолат хати Ташкилотнинг раҳбаринг куришлиш соҳасида мутахассислик бўйича олий маълумотга егалиги талаб этилади

Тип: Текстовое значение

Описание: Доимий равишда ишловчи 20 тадан кам булмаган малакавий ишчилар мавжудлиги инженер-техник ходимларни мавжудлиги олий маълумотли курилиш мутахассислигига эга бўлиши мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги ва техника ва ёнгин хавфсизлиги ва сифат назорати ва муҳандис курувчилар ва иш юртурувчилар сони ходимлари 1 киши мавжудлиги my.mexnat.uz сайтидан юкланган QR кодли меҳнат дафтарчасидан ва диплом нусхасини тақдим этиши шарт ва курилиш ишларини 10 иш кунда якунлаши тугрисида қафолат хати Ташкилотнинг раҳбаринг куришлиш соҳасида мутахассислик бўйича олий маълумотга егалиги талаб этилади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	40	маълумот юкланди.	40	Экспертная		
XORAZM FAYZ QURILISH XK	40	файл илова килинади	22	Экспертная		

Критерий №3 Объектнинг буюртмачи белгиланган бошлангич нархнинг 20% гача микдордаги айланма маблағлар мавжудлиги хизмат килувчи банк томонидан тасдиқланган айланма маблағлар ва банкдан(кредит ёки ссуда) қарздорлиги мавжуд эмасилиги тугрисида маълумотнома бўлиши шарт. солиқдан қарзи йуклиги тугрисида маълумотнома мавжудлиги тугрисидаги маълумотнома асосида баҳоланади маълумотнома олинган сана танлов элон килинган санадан кейин олинган бўлиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Объектнинг буюртмачи белгиланган бошлангич нархнинг 20% гача микдордаги айланма маблағлар мавжудлиги хизмат килувчи банк томонидан тасдиқланган айланма маблағлар ва банкдан(кредит ёки ссуда) қарздорлиги мавжуд эмасилиги тугрисида маълумотнома бўлиши шарт. солиқдан қарзи йуклиги тугрисида маълумотнома мавжудлиги тугрисидаги маълумотнома асосида баҳоланади маълумотнома олинган сана танлов элон килинган санадан кейин олинган бўлиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	30	маълумот юкланди.	30	Экспертная		
XORAZM FAYZ QURILISH XK	30	файл	17	Экспертная		

Критерий №4 Охирги уч йил давомида бажарилган ишлар, ҳамда халқ таълими тизимидаги объектларда бажарган

ишлар тугрисида маълумотнома ва Давлат кабул хайъатига топширганлиги тугрисида ишчи хайъати Далолатномаси ва охири бажарган ишларини ДМНБ утганлиги тугрисида (Курилиш майдонини курганлиги ва урганиб чикилганлиги тугрисида техник назоратчи томонидан тасдиқланган маълумотнома) маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Охири уч йил давомида бажарилган ишлар, ҳамда халқ таълими тизимидаги объектларда бажарган ишлар тугрисида маълумотнома ва Давлат кабул хайъатига топширганлиги тугрисида ишчи хайъати Далолатномаси ва охири бажарган ишларини ДМНБ утганлиги тугрисида (Курилиш майдонини курганлиги ва урганиб чикилганлиги тугрисида техник назоратчи томонидан тасдиқланган маълумотнома) маълумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	30	маълумот юкланди.	30	Экспертная		
XORAZM FAYZ QURILISH XK	30	файл	17	Экспертная		

Критерий №5 Пудратчи корхона бажарадиган ишга лойиҳа асосида тайёрланган Лойиҳа смета хужжатларини ишлаб чиққан ташкилот тамонидан оферта тўғри эканлиги бўйича маълумотнома. Иш ҳақи фонди. ва статистикага топширган хисоботи охири 3 йиллик тасдиқланган бўлиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудратчи корхона бажарадиган ишга лойиҳа асосида тайёрланган Лойиҳа смета хужжатларини ишлаб чиққан ташкилот тамонидан оферта тўғри эканлиги бўйича маълумотнома. Иш ҳақи фонди. ва статистикага топширган хисоботи охири 3 йиллик тасдиқланган бўлиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	20	маълумот юкланди.	20	Экспертная		
XORAZM FAYZ QURILISH XK	20	файл	12	Экспертная		

Критерий №6 Пудратчининг соҳавий курилиш-пудрат ташкилотлари рейтингда мавжудлиги тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудратчининг соҳавий курилиш-пудрат ташкилотлари рейтингда мавжудлиги тугрисида маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	10	маълумот юкланди.	10	Экспертная		
XORAZM FAYZ QURILISH XK	10	файл илова килинади	7	Экспертная		

Критерий №7 Пудратчи ташкилот устави руйхатдан утказилгани тўғрисида гувоҳнома Асосий фаолият тури курилиш ҳамда камида 3 йиллик иш тажрибаси бўлиши керак. Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида мавжуд эмаслиги тугрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудратчи ташкилот устави руйхатдан утказилгани тўғрисида гувоҳнома Асосий фаолият тури қурилиш ҳамда камида 3 йиллик иш тажрибаси бўлиши керак. Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида мавжуд эмаслиги тугрисида малумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	20	маълумот юкланди.	20	Экспертная		
XORAZM FAYZ QURILISH XK	20	файл	11	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
XORAZM FAYZ QURILISH XK	58 640 771.00	58 300 000.00 UZS	58 300 000.00	00.00	58 300 000.00	03.08.2022 09:25:59	00.00
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	58 640 771.00	56 800 000.00 UZS	56 800 000.00	00.00	56 800 000.00	02.08.2022 19:20:00	00.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
XORAZM FAYZ QURILISH XK	56.842	0	56.842
XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ	100	0	100

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 128302 от 03.08.2022 года на приобретение Тупроккала тумани МТБга карашли 8-сон МТТ биносини жорий таъмирлаш определила победителем:

XORAZM INVESTMENT SAVDO MCHJ
307112076

и резервный исполнитель: XORAZM FAYZ QURILISH XK (303004079)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	DJANGIROV RASHID KADIROVICH	Согласен	
Председатель комиссии	RUZIBAYEV SHUXRAT XUDAYBERGANOVICH	Согласен	
Член комиссии	RAXMANOV OXUNJON NE'MATJON O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	YAROSHEVA ZUMRAT SHARIPOVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП